

“MA’QULLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2023-yil “5” may dagi
51-3 -sonli qarori bilan

“TASDIQLANGAN”

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Kuzatuv kengashi majlisining
2023-yil “6” may dagi
29 -sonli bayonnomasi bilan

Boshqaruv raisi



O. Butayev



Kuzatuv kengashi raisi



O. Isakov



**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining
Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomiga
kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar**

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomiga kiritilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar

1. Nizomning nomi quyidagicha o‘zgartirilsin:

“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining Komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom”;

2. Nizomning 1-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining “Komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan “2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi”, “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami 3254, 2020-yil 30-iyun), “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari” (ro‘yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may), va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining (keyingi o‘rinlarda – bank) Ustavi, “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizom va boshqa ichki me‘yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.”;

3. Nizomning 2-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Mazkur Nizom bank Komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda – Qo‘mita) vazifa va vakolatlari, majburiyatlari, shakllantirish va faoliyat yuritish tartibi, Kuzatuv kengashiga hisobotlar taqdim qilish tartibi va boshqa faoliyat asoslarini belgilaydi.”;

4. Nizomning 3-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Qo‘mita bankning komplaens, shuningdek ichki nazorat, sanksiyaviy komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika masalalarini samarali ko‘rib chiqish maqsadida tashkil etilgan.”;

5. Nizomning 6-bandi:

quyidagi mazmundagi o‘n uchinchi - o‘n yettinchi xatboshlari bilan to‘ldirilsin:

“jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizm va ommaviy qirg‘in qurollarni tarqatishni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan operatsiyalar tavakkalchiliklarini oldini olish yuzasidan taklif va tavsiyalar berish;

bank mijozlarini identifikatsiyalashni avtomatlashtirish va takomillashtirish choralari bo‘yicha tavsiya va takliflar berish;



bankning komplaens, shuningdek ichki nazorat, sanksiyaviy komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika masalalari yuzasidan chora-tadbirlar dasturi, siyosati va ichki hujjatlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritish;

sanksiyaviy xatarlarni oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish bo'yicha tavsiya va takliflar berish;

bankda iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog'liq xatarlarni minimallashtirish choralari bo'yicha tavsiya va takliflar berish;";

o'n uchinchi - o'n oltinchi xatboshlari tegishli ravishda o'n sakkizinchi – yigirma birinchi xatboshlari deb hisoblansin;

o'n sakkizinchi va o'n to'qqizinchi xatboshlari quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"bankning kompalaens, shuningdek ichki nazorat, sanksiyaviy komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika masalalariga mas'ul tarkibiy bo'linmalari hisobotlarini kamida har chorakda bir marta ko'rib chiqish va Kuzatuv kengashiga taqdim etish;

davriy ravishda (yilda kamida bir marta) bankning kompalaens, shuningdek ichki nazorat, sanksiyaviy komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika masalalariga mas'ul tarkibiy bo'linmalari xodimlarini kasbiy mahorat darajasini baholab borish;";

6. Nizomning 19-band to'qqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"agar bankda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish, iqtisodiy sanksiyalar va eksportga taqiqlar bilan bog'liq xatarlar hamda korrupsion harakatlar aniqlansa, Boshqaruv va Kuzatuv kengashining majlisi chaqirilishini talab qilish;";

7. Nizomning 20-band to'qqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"kompalaens, shuningdek ichki nazorat, sanksiyaviy komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasidagi hamda bank taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa sohalardagi yutuqlarni kuzatib borish;";

8. Nizomning 25-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"25. Qo'mita majlisi Qo'mita raisi yoki u bo'lmagan taqdirda uning o'rnini egallash huquqiga ega bo'lgan shaxs, Boshqaruv raisi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs, zarur hollarda Boshqaruvning boshqa a'zolari, bankning komplaens, shuningdek ichki nazorat, sanksiyaviy komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasiga mas'ul tarkibiy bo'linmalari rahbarlari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, shuningdek Kuzatuv kengashi yoki Qo'mita a'zosi talabiga binoan chaqirilishi mumkin.";


9. Nizomning 28-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"28. Qo'mita a'zolarining Qo'mita majlisida shaxsan yoki ushbu Nizom 27-bandida nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ishtirok etish imkoni bo'lmasa, Qo'mita a'zosi Qo'mita raisi bilan kelishilgan holda oldindan yozma ravishda

(byulletenni to'ldirish yoki boshqa tarzda) Qo'mitaning tegishli majlisi kun tartibiga kiritilgan masala bo'yicha ovoz berish huquqiga ega.”;

10. Nizomning 35-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“35. Boshqaruv a'zolari, bankning komplaens, shuningdek ichki nazorat, sanksiyaviy komplaens, korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasiga mas'ul tarkibiy bo'linmalari va boshqa tarkibiy bo'linmalar xodimlari Qo'mitaga yordam ko'rsatishi, shuningdek o'z vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha Qo'mitaning ko'rsatmalarini bajarishi shart.”.



[Handwritten signatures]

